


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOIN STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”
42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Web site: www.uzbekistonmet.uz

2026-yil 5-iyun
01-05-13/4327-son

“Navoiy MET” filiali
Qiziltepa hududi hodimi
F. Sharipovga

“O‘zbekiston MET” AJ, Sizning, “Navoiy MET” filiali xodimlarni tayyorlash va jamlash guruhi yetakchi muhandisi R.Toshevani ishdan chetlashtirilganligi holatidan norozi bo‘lib Jamiyat boshqaruvi raisi nomiga yo‘llagan hamda Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni qayd qilish kitobida 21-may kuni JAM-80 raqami bilan ro‘yxatga olingan jamoaviy murojaatingizni o‘rganib chiqib, quyidagilarni ma’lum qiladi.

“O‘zbekiston MET” AJning 2026-yil 1-maydagi 113-son buyrug‘iga asosan “Navoiy MET” filiali xodimi B.Hamidovning murojaati yuzasidan filial xodimlarining xatti-harakatlarini o‘rganish maqsadida xizmat tekshiruvini o‘tkazilishi belgilangan.

Xizmat tekshiruvini davomida aniqlangan holatlarni inobatga olgan holda, Jamiyatning 2026-yil 15-maydagi 123-son buyrug‘iga asosan filial direktori A.Ruziyev hamda xodimlarni tayyorlash va jamlash guruhi yetakchi muhandisi R.Tosheva O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 309-moddasida belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddati davomida ishdan chetlashtirilganlar.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi mehnat qonunchiligiga ko‘ra ish beruvchi xodimni xizmat tekshiruvini o‘tkazish vaqtida ishdan chetlashtirishga haqli ekanligi hamda ishdan chetlashtirish uchun tegishli asoslar mavjudligini inobatga olib, R.Toshevaning xizmat tekshiruvini muddati davomida o‘rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan chetlashtirilishi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilganligi ma’lum qilinadi.

Shuningdek, ushbu javob xatidan norozi bo‘lgan taqdiringizda qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega ekanligingiz tushuntiriladi.

Boshqaruv raisining
o‘rinbosari



A. Yuldashev

